

## **BOLALAR ZO`RAVONLIGI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK HAMDA HUQUQIY JIHATDAN TAHLILI**

*Muxitdinova Muxlisa Sayfutdinovna*

*Renessans ta`lim universiteti*

*Psixologiya fakulteti talabasi*

*muxitdinovamuxlisa87@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot bolalar zo`ravonligining kelib chiqish sabablari, zo`ravon psixologiyasi, unga qarshi kurashish va bolalarni himoya qilishning huquqiy hamda psixologik jihatlarini o`rganishga bag`ishlangan. Maqolada keltirilgan statistik ma`lumotlar asosida bolalar zo`ravonligining global darajada ortib borayotganini ko`rishimiz mumkin. Maqolada bolalar zo`ravonligi tushunchasi, turlari, kelib chiqishiga oid mutaxassisar fikri, xalqaro sud ishidan namuna, O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida bolalarni zo`ravonlikdan himoya qilishga oid normalar hamda zo`ravonlikni oldini olishda va zo`ravonlikka uchragan bolalar bilan psixologik treninglar o`tkazishga oid tavsiyalar nazarda tutildi.

**Kalit so`zlar:** Bolalar zo`ravonligi, eksplutatsiya, jinsiy zo`ravonlik, ruhiy zo`ravonlik, jismoniy zo`ravonlik bulling, oila, art-terapiya, guruh terapiyasi, kognitiv xulq-atvor terapiyasi, qurolli mojarolar, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi, bolalar pornografiyasi, himoya orderi, depressiya, kognitiv rivojlanish.

### **Kirish**

Zo`ravonlik qanday sharoit, hudud va davrda bo`lishidan qat`iy nazar, jinoyat hisoblanadi. Jismoniy zo`ravonlik, jinsiy zo`ravonlik, ruhiy zo`ravonlik, g`amxo`rlik ko`rsatmaslik, eksplutatsiya qilish, ta`qib etish (bullying) kabilar bugungi kunda bolalar zo`ravonligining shakllaridir. Zo`ravonlik so`zining tub ma`nosi ham zo`rlik, kuch ishlatish kabi ma`nolarini anglatadi. Zo`ravonlik butun umrga cho`zilishi mumkin bo`lgan ruhiy jarohatdir. Uni bartaraf etish uchun oilaviy, ta`limga oid va ijtimoiy darajada birgalikda harakat qilish zarur hisoblanadi. Zo`ravonlikka uchragan bolalar bilan psixologik ishni olib borish juda mushkul bo`lib bu uchun psixologdan sabr, aniqlilik, kirishuvchanlik, sezgirlik kabi shaxsiy fazilatlar darkor bo`ladi. Bugungi kunda bolalar zo`ravonligi global darajada muammoga aylanib kelmoqda. Zo`ravonlikning tub asosida zo`ravonning odamlar ustidan hokimiyat va nazorat qilish istagida bo`lishi namoyon bo`ladi. Zo`ravon sodir etgan zo`ravonligining sababchisi sifatida odamlarni ayblaydi, zo`ravonlik sodir etishiga uni o`zları sabab bo`lganliklarini takidlaydi. Ular o`z xatti-harakatlari orqali boshqalarni manipulyatsiya qilib boshqarishni yoqtiradilar. Shu xususiyatlari orqali ular ajralib turadilar. UNICEF va Statistika agentligi tomonidan o`tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq, so`nggi

ikki yilda 14 yoshgacha bo`lgan bolalarning 69 foizi tarbiyaviy jarayonda zo`ravonlikka duch kelgan, ulardan 29 foizi jismoniy zo`ravonlik qurboni bo`lgan. Dunyoda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo`lgan har uch boladan ikkitasiga shafqatsiz tarbiya usullari qo`llanilgan. Har to`rtinchi bola maktabda bulling qurboniga aylanadi. Jahon sog`lijni saqlash tashkilotining 2022-yilgi statistik ma`lumotlariga ko`ra, butun dunyo bo`ylab 1 milliard bolalar jinsiy zo`ravonlikka uchragan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bolalar zo`ravonligining shakllariga to`xtalsak.

Bolalarga og`irligi turli darajada bo`lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog`lig`i uchun xavfli holatda bo`lgan bolalarga yordam ko`rsatmaslik hamda zo`ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbazarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog`lig`i yoki erkinligiga tajovvuz qiladigan jismoniy ta`sir o`tkazish bolalarga nisbatan  deb e`tirof etiladi.

Bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo`lgan harakatlarni sodir etish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovvuz qilish, shu jumladan, nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo`rlik ishlatib g`ayritabiyy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majburlash, o`n olti yoshga to`lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo`shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish, aldash yoki ishonchni suiiste`mol qilish orqali yoxud bolaning ojizligidan foydalanib shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shahvoniy shilqimlik qilish, shuningdek qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo`lgan har qanday boshqa harakatlar bolalarga nisbatan **jinsiy zo`ravonlik** deb e`tirof etiladi.

Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha`ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo`ravonlik shakli, shu jumladan zo`ravonlikdan jabrlanuvchida o`z xavfsizligi uchun xavotir uyg`otgan, o`zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog`lig`iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan **ruhiy zo`ravonlik** deb e`tirof etiladi.

Zarur imkoniyatlar, bilimlar va ko`nikmalarga, shu jumladan buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta`lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo`lgan ota-onalar (ular o`rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning asosiy ehtiyojlarini qanoatlantirmaslik bolaning sog`lig`i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi buzilishiga olib kelsa, **g`amxo`rlik ko`rsatmaslik** deb e`tirof etiladi.

Boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan odam savdosi, g`ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek jismoniy yoki ruhiy ta`sir ko`rsatishni qo`llagan holda bolani majburlash orqali boladan nikohga kirish yoki er-xotin bo`lib yashash, muayyan

diniy ta’lim olish, har qanday shakldagi mehnatga majburlash uchun foydalanish bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, shu jumladan ta’lim olishiga tahdid tug‘dirsa, **bolalarni ekspluatatsiya qilish** deb e’tirof etiladi.

Bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratlari laqablardan foydalanish, u (ular) bilan har qanday muloqotni cheklab qo‘yish (boykot qilish), uning (ularning) mol-mulkini olib qo‘yish va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazish, uning (ularning) o‘ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, uning (ularning) sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish yoxud uning (ularning) sog‘lig‘i va hayotiga zarar yetkazish, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, muttasil ruhiy va (yoki) jismoniy tajovuzkor ta’sir ko‘rsatish **ta’qib etish (bullying)** deb e’tirof etiladi.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirib o`tilgan zo`ravonlikdan so`ng bolalarda turli xildagi muammolar avj ola boshlaydi. Ko‘pgina psixologik zo`ravonlikdan omon qolganlar o‘zlariga nisbatan qilingan zo`ravonlikni zo`ravonlik deb bilishmaydi.<sup>2</sup> Bolalarda zo`ravonlikdan so`ng ruhiy salomatlikka ta`sir jihatdan, qo`rquv, tashvish, depressiya, o`ziga nisbtan ishonchsizlik va hurmatning passayishi kabi holatlar paydo bo`ladi, ijtimoiy munosbatlarni o`rnatishda qiyinchiliklar, tajavuzkorlik, shu bilan birgalikda har qanday holatlarda ham itoatkorlik kabi salbiy xatti-harakatlar namoyon bo`ladi. Diqqatni jamlashning qiyinlashishi, turli bilimlarni egallashdagi qiyinchiliklar kabi kognitiv rivojlanishdagi ta`sirlar ham avj oladi.

### **Asosiy qism:**

Bola zo`ravonligi butun dunyo bo`ylab bir xil tushuncha sifatida namoyon bo`ladi. Bola zo`ravonligiga oid mutaxasislarning turli fikrlari mavjud bo`lib, ulardan I.Berkoves ijtimoiy birlik ichidagi axloqiy va axloqiy qadriyatlar darajasi, shuningdek, oila ichidagi ustuvorlik ushbu doimiy kurash o`rganilayotgan hodisaga sezilarli ta`sir ko`rsatadi, deb hisoblaydi.<sup>3</sup> Selmani-Bakiuning fikricha, “oila har qanday jamiyatning eng muhim ustunlaridan biridir. Har bir bola o‘z g‘amxo‘rligi va funksional va sog‘lom oilada o‘sishi, hissiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, sog‘lom va hurmatli shaxs bo‘lib ulg‘ayish huquqiga ega. Oilaning huquq va majburiyatlari bolaning ushbu huquqidan, demak, bolaning ota-onasi bilan yashash huquqidan va ota-ona huquqlari ota-onaning o‘z majburiyatlarini mas’uliyat bilan amalga oshirish orqali farzandi

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-7219502>

<sup>2</sup> Goldsmith, Rachel E.; Freyd, Jennifer J. Awareness for Emotional Abuse(ингл.) // Andoza:Нп3. — 2005. — ISSN 1092-6798. — DOI:10.1300/J135v05n01\_04. Архивировано 1 may 2020 года.

<sup>3</sup> Берковец Л. Агрессия: причины, последствия, контроль. СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК., 2002. С. 512

uchun munosib va sog‘lom oilaviy hayotni ta’minlash majburiyatidan kelib chiqadi"<sup>4</sup>. Ushbu fikrlardan ko`rishimiz mumkinki olimlarning fikriga asosan zo`ravonlikning asosiy “o`chog`i” bu – oiladir. Ba`zi taqdqiqotchilarining fikriga ko`ra, oiladagi zo`ravonlik bolalar duchor bo`lishi mumkin bo`lgan eng halokatli zo`ravonlikdir.<sup>5</sup> Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, ruhiy zo`rlik jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo`rlik ishlatish, mol-mulkni nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma`lumotlarrni oshkor etish va qo`rqitish shaklida sodir etiladi.<sup>6</sup> Straus va Fieldning ta’kidlashicha, psixologik tajovuz amerikalik oilalarda keng tarqalgan xususiyatdir: „bolaga nisbatan og‘zaki hujumlar, xuddi jismoniy hujumlar kabi, juda keng tarqalgan bo‘lib, deyarli universaldir“.<sup>7</sup> Ta`qib etish (bullying) asosan, mакtab o`quvchilari orasida maktablarda, umman olganda, ta`lim muassasalarida keng tarqalayotgan bolalar zo`ravonligining shakllaridan biridir. Yuqoridagi olimlarning, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarining fikrlarini o`rgangan holda bolalar zo`ravonligining asosiy qismi oilada ota-onalar tomonidan sodir etilishining guvohi bo`ldik.

Bu sud ishida murojaatchi 2001-yilda tug`ilib Buxarestda yashab kelgan. Uning ota onasi C.I. va D.D. 2004-yilda ajrashishgan. Ajrashuvga asosiy sabab esa D.Dning farzandi va ayoliga bo`lgan zo`ravonligi edi. O`sha vaqtida ya`ni 2004-yil boshida ayol Buxarest Bolalarni himoya qilish boshqarmasining ishonch telefoniga qo`ng`iroq qilgan holda, farzandi va o`ziga nisbatan zo`ravonlik bo`layotgani haqida xabar qilib, ulardan himoya qilinishni so`raydi. Shundan so`ng, boshqarma ularni himoya ostiga oladi. Ayol shu yilning turli xil vaqtlarida politsiyaga erining zo`ravonligi haqida xabar bergen bo`lsada, politsiya tomonidan hech qanday chora tadbirlar ko`rilmagan. Vanihoyat, ayol tushayotgan arizalarni ko`rmayotganligi ustidan politsiyaga suiste`mollik yuz berayotgan holat haqida ham murojaat qildi. Bu bo`yicha politsiya qolgan barcha holatlarni o`rganib chiqqan holda ish materiallarini to`plab sudga yuboradi. Sud bo`lgan vaziyatni o`rganish mobaynida ikki tomonni ham eshitadi. Sudning birinchi instansiyasida sud D.Dni vaqtı-vaqtı bilan bo`ladigan nomaqbul harakatlar qilganligi va ushbu xatti-harakatlar u darajada og`ir bo`lmagani uchun uni oqladi. Appelatsiya sudi esa, ushbu holatni o`rganib, sud noto`g`ri qaror qabul qilgan deb hisoblab, ish materialini yana qayta ko`rish uchun okrug sudiga yuborgan. Okrug

<sup>4</sup> Selmani-Bakiu, A. (2016). Deprivation of the parental rights according to the Macedonian legislation. Annual of the institute of sociological, political and juridical research, Volume. XL, no.2. Institute of sociological, political and juridical research, St.Cyril and Methodius University, Skopje, Republic of Macedonia, p.80

<sup>5</sup> CHRISTIAN, CW AND COMMITTEE ON CHILD ABUSE AND NEGLECT (2015). “The evaluation of suspected child physical abuse”, In: Pediatrics, 135(5), pp.e1337-e1354

<sup>6</sup> Тахиров Ф. Айрим хорижий мамлакатларда жинсий жиноятлар учун жавобгарлик / Масъул мухарририю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбоев. –Т., 2009. –Б. 95–96

<sup>7</sup> Straus, Murray A.; Field, Carolyn J. (November 2003). "Psychological aggression by American parents: national data on prevalence, chronicity, and severity". Journal of Marriage and Family 65 (4): 795–808. doi:10.1111/j.1741-3737.2003.00795.x.

sudida bola ham ishtirok etib sud tomonidan berilgan savollarga javob bergen, shuningdek, u otasi tomonidan kaltaklanganini, uxlayotgan vaqtida otasi uning ustiga suv sepishini, turli nomlar bilan chaqirib uni haqoratlashini, otasi bilan shu sababli yashashni va uni ko`rishni ham istamasligini bildirgan. Shundan so`ng otasi ham qilgan ishini tan olgan. Shuningdek, psixologning ko`rsatmaları, psixologik hisobotlarga ko`ra ham bola chindan ham psixologik zo`ravonlikka uchragan hisoblanadi. Sud ishi besh yilga yaqin cho`zildi. Sud ishining bunday uzoq cho`zilishiga asosiy sabab, sudyalarning sud ishini ko`rish davomida ish materiallarini to`liq o`rganmagani edi. Ishlarning birinchi, ikkinchi instansiyalarga o`tishi davomida jabrlanuvchining otasiga avvaliga kam muddatdan iborat ozodlikdan mahrum qilish jazosi berilgani, ma`naviy zarar esa undirilmagani sabab bo`lgan. Keyinchalik esa, sud ma`naviy zararning undirilmasligiga sabab sudga bu haqida arizada keltirilmaganligidadir deb hisoblagan. Sudning so`nggi xulosasi ayblanuvchidan jabrlanuvchiga 2000 rumin leyi miqdorida ma`naviy zararni undirish hamda 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini, shuningdek, qo`shimcha jazo sifatida otalik huquqini va saylanish huquqini ham cheklashni belgiladi.

Bola huquqlari Yevropa ijtimoiy Xartiyasining 7-moddasi (bolalarning himoyalanish huquqi), 17-moddasida (bolalarning ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy himoyalanish huquqi) ham bolalarning huquqlari mustahkamlab qo`yilgan. Yevropa Kengashi bolalarga nisbatan oilaviy zo`ravonlikni chuqur tahlil qilgan holda, bolalar zo`ravonligiga qarshi kurashsih lozimligini ta`kidlaydi. Unda bolalar zo`ravonligi bolaga tarbiya berish yoki tarbiyalash an`anasi niqobi ostida bolalarga zo`ravonlik qilinishi, bolalar kattalarga qaramligi, jismoniy jihatdan hali zaifligi ularni zo`ravonlikka uchrashi emas, balki himoyalanashi uchun asosiy sabab ekanligini ta`kidlaydi. Bola huquqlariga oid qo`mita ham bolalarga nisbatan tan jarohatning xoh u ma`naviy, xoh jismoniy zarar bo`lsin har qanday ko`rinish zo`ravonlik bo`lib, ushbu zo`ravonlikni amalga oshirishda hech qanday istisnollar mavjud emasligini ta`kidlaydi. Ushbu sud ishidan xulosa, bolalar zo`ravonligiga qarshi kurashish va ularni oldini olish. Bolalar zo`ravonligigga qarshi kurashish majburiyati inson huquqlarining asosiy tamoyilidir.

### **Xulosa:**

Yuqorida keltirilgan statistik ma`lumotlar, psixolog olimlar fikri va mulohazalari tahlili hamda sud amaliyoti tahlillarini o`rganib chiqqan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin: “Bolalarni zo`ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to`g`risida”gi qonun ham aynan bugungi kunda ushbu jinoyat ko`payib borayotgani va unga qarshi kurashish uchun davlat ko`rayotgan chora-tadbiri hisoblanadi. Bolalar zo`ravonligi shaklidan, kelib chiqish sabablaridan va shart-sharoitlaridan, kimlar tomonidan sodir etilayotganidan qat`iy nazar global miqyosda yildan-yilga ortib borayotgani sir emas. Bolalarga ruhiy hamda jismoniy

zo`ravonliklar, bolalar eksplutatsiyasi kabilar oilada ota-onalar tomonidan sodir etilishi ko`p kuzatilmogda, jinsiy zo`ravonlik, ularni ta`qib qilish (bullying) kabilar esa oiladan tashqari tashqi muhitda ko`proq uchraydi. Shuningdek, ushbu zo`ravonliklar bolalarning tengdoshlari tomonidan sodir etilishi ham kuzatilmogda. Bunga asosiy sabab sifatida esa fikrimizcha, jahon axborot tizimi hisoblanmish Internetdan, ijtimoiy tarmoqlardan noto`g`ri hamda qarovsiz holda bolaning ota-onas nazoratisiz foydalanishidir. Ushbu holat tufayli nafaqat bolalar zo`ravonlik jabrlanuvchisi balki uni sodir etgan shaxs sifatida ham gavdalanmoqdalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro Mehnat Tashkilotining **Statistik ma`lumotlariga** ko`ra 2024-yilda dunyo bo`ylab 49,6 million kishi odam savdosi qurbanlari bo`lgan, ularning o`n ikki millioni esa bolalarni tashkil etgan. ParentsTogether nodavlat tashkilotining statistik ma`lumotlariga ko`ra, internetda nomaqbul jinsiy kontentlarga bolalarning 43 foizi 13 yoshida duch kelishadi. Har 3 boladan biri esa internetda o`zi istamagan holda taxdid ostida jinsiy aloqada bo`lishi keltirilgan.

Bolalar zo`ravonligiga oid yuqorida tahlil qilganimizdek ko`p qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Mamlakatlardan kelib chiqadigan axloqiy normalarni noto`g`ri qo`llagan holda “tarbiya berish” niqobi ostida bolalarga nisbatan zo`ravonlik bolalarning kelajakda normal aqliy, ruhiy hamda jismoniy kamol topishiga to`sinqlik qiladi. Bolalarga nisbatan zo`ravonlikka qarshi kurashish, avvalo, oiladan boshlanishi yuqoridagi misollar orqali o`z aksini topdi. Shunday ekan, bolalar zo`ravonligini oldini olishda davlat bilan birgalikda fuqarolar ham harkatda bo`lishlari lozim. Shu orqali uning ijrosi ta`minlanishiga o`z hissamizni qo`shgan bo`lamiz. Ota-onalar uchun psixologik treninglar o`tkazish, ta`lim muassasalarida bolalar huquqlarini tushuntirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni amalga oshirgan holda zo`ravonlikdan jabrlangan bolalarga yordam berish, shuningdek bolalar bilan birgalikda art-terapiya, guruh terapiyasi hamda kognitiv xulq-atvor terapiyasi kabi terapiyalar orqali jabrlanishlarning oldini olish va jabrlanuvchilarga psixologik yordam ko`rsatish mumkin. Har bir bola – kelajakning umidi va jamiyatning eng qimmat boyligi. Zo`ravonlikka qarshi kurashish – bir insonning vazifasi emas, balki butun jamiyatning vijdon sinovidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo`ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to`g`risida”gi qonuni <https://lex.uz/docs/-7219502>;
2. Xalqaro sud amaliyoti: D.M.D Ruminiyaga qarshi [https://hudoc.echr.coe.int/eng#%22itemid%22:\[%22001-177226%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/eng#%22itemid%22:[%22001-177226%22]})
3. Берковец Л. Агрессия: причины, последствия, контроль. СПб.: прайл-ЕВРОЗНАК., 2002. С. 512
4. Selmani-Bakiu, A. (2016). Deprivation of the parental rights according to the Macedonian legislation. Annual of the institute of sociological, political and

- juridical research, Volume. XL, no.2. Institute of sociological, political and juridical research, St.Cyril and Methodius University, Skopje, Republic of Macedonia, p.80
5. CHRISTIAN, CW AND COMMITTEE ON CHILD ABUSE AND NEGLECT (2015). "The evaluation of suspected child physical abuse", In: Pediatrics, 135(5), pp.e1337-e1354
  6. Тахиров Ф. Айрим хорижий мамлакатларда жинсий жиноятлар учун жавобгарлик / Масъул мұхаррирю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбоев. –Т., 2009. –Б. 95–96
  7. Straus, Murray A.; Field, Carolyn J. (November 2003). "Psychological aggression by American parents: national data on prevalence, chronicity, and severity". Journal of Marriage and Family 65 (4): 795–808. doi:10.1111/j.1741-3737.2003.00795.x.
  8. Goldsmith, Rachel E.; Freyd, Jennifer J. Awareness for Emotional Abuse(ингл.) // Andoza:Нп3. — 2005. — ISSN 1092-6798. — DOI:10.1300/J135v05n01\_04. Архивировано 1 may 2020 года.